DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.18143456

ICHI ISHLAR ORGANLARI-FUQAROLAR NIGOHIDA

Kimsanboyeva Z.A., Xudoynazorova A.M., Abdupattoyeva K.A.

IIVning 1-sonli Toshkent akademik litseyi “Huquqiy-ijtimoiy va gumanitar fanlar” kafedrasi tarix fani bosh o‘qituvchilari va TDYU talabasi

zuxraxonkimsanboyeva@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mustaqillik yillarida fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, davlat va jamiyat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarni oldini olish va profilaktika qilish bo‘yicha respublikada yaxlit huquqiy tizim yaratilgan bo‘lib, unda ichki ishlar organlari muhim o‘rin egallab kelmoqda.

Kalit so‘zlar: *Ichki ishlar organlari, huquq-tartibot, profilaktika, xavfsizlik, korxona, muassasa, tashkilot, shaxs, davlat.*

ANNOTATION

During the years of independence, a comprehensive legal system has been created in the republic to protect the rights and freedoms of citizens, their legitimate interests, maintain public order, ensure the security of the individual, state and society, and prevent and prevent crimes, in which internal affairs bodies have been playing an important role.

Keywords: *Internal Affairs bodies, law enforcement, prevention, security, enterprise, institution, organization, individual, state.*

АННОТАЦИЯ

За годы независимости в республике была создана всеобъемлющая правовая система для защиты прав и свобод граждан, их законных интересов, поддержания общественного порядка, обеспечения безопасности личности, государства и общества, а также предотвращения и пресечения преступлений, в которой важную роль играют органы внутренних дел.

Ключевые слова: *органы внутренних дел, правоохранительные органы, предотвращение, безопасность, предприятие, учреждение, организация, личность, государство.*

KIRISH. Ichki ishlar organlari tizimi-O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmasi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari, transport xavfsizligini ta’minlash boshqarmalari, jazoni ijro etish muassasalari, ichki ishlar organlarining o‘ta muhim va toifalanganobyektlardagi bo‘linmalari, shaharcha ichki ishlar bo‘linmalari, mahalla huquq-tartibot maskanlari, ichki ishlar organlaring tayanch punktlari, ta’lim va tibbiyot muassasalari kabi tashkilotlardan iborat. O‘tgan davr mobaynida ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshiriladi, ichki ishlar organlarining mahallalarda jamoat xavfsizligini ta’minlash, fuqorolar xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun tashkil etilgan quyi bo‘g‘inini rivojlantirish va mustahkamlashtirishga katta e’tibor qaratilgan. Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ichki ishlar faoliyatining samaradorligini oshirish, fuqorolarning tinch va osoyishta hayot kechirishini ta’minlash, yurtimizda jinoyatchiligning o‘sishiga yo‘l qo‘ymaslik imkonnini beradi. Jahondagi murakkab vaziyat ichki ishlar organlari xodimlaridan zimmaalariga yuklatilgan tinchlik va osoyishtalikni asrashdek o‘ta masulyatli va sharafli vazifani kecha va kunduz fidoyilik va vijdonan ado etishni talab qiladi. Sohada amalga oshirilgan tizimli chora-tadbirlar natijasida o‘tgan qisqa davrda Yangi O‘zbekistonning ichki ishlar xodimlari vatanimizning asl o‘g‘lonlari sifatida zamonaviy bilimlarni egallagan, ma’naviy va ma’rifiy dunyosi boy, har qanday xavf-xatarga qarshi matonat bilan kurashishga tayyor xalqimizning, chin ma’nodagi himoyachilarga aylanmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Ichki ishlar organlari qonun ustuvorligi, shaxs, jamiyat, va davlatning xavfsizligi, amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlari doirasida barcha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amaldagi qonun hujjatlarining talablari, shuningdek o‘rnatilgan jamoat tartibi va xavfsizligi qoidalariga rioya qilishini nazorat qilish, bu sohada sodir etilaypygan huquqbuzarlik uchun javobgarlik muqarrarligi ta’minlash boyicha chora-

tadbirlarni kundalik, doimiy hamda alohida sharoitlarda kuchaytirilgan va sutkalik rejim tartibida olib boradigan faoliyatda amalga oshirishni o‘z ichiga oladi.



NATIJA. Ichki ishlar organlarining asosiy faoliyat yo‘nalishlari

- Fuqorolarning huquq va erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish

- jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash

- tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, jinoyat ishlaari bo‘yicha surishtiruv hamda tergovgacha tekshiruvni amalga oshirish

- jinoyatchilik va terorizmga qarshi kurashish, terorchilik harakatlariga chek qo‘yish hamda garovga olinganlarni ozod qilishda ishtirok etish, shuningdek odam savdosiga qarshi kurashish

- huquqbuzarliklar profilaktikasi, ularnign sabablari va sodir etilishida imkon berayotgan shart sharoitlar aniqlarsh hamda bartaraf etish, huquqbuzarliklarni sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash

- ehtiyot choralari, jinoiy-huquqiy ta’sir ko‘rsatishning boshqa choralarini ijro etish va bedarak yo‘qolgan shaxslarni qidirish

- yo‘l harakati xavfsizligini taminlash

- pasport tizimi talablarining bajarilishini ta’minlah, O‘zbekiston Respublikasidan chiqish va unga kirish zarur bo‘lgan hujjatlar, doimiy va vaqtincha yashash uchun ruxsatnomalar berish hamda rasmiylashtirishga doir ishlar. Mahalla huquq-tartibot maskani, mahalla va qishloqlarda jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarlik profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini bevosita amalga oshiradi, fuqorolarning

xavfsizligi va osoyishtaligini ta’minlash borasida ichki ishlar organlari va huquq-tartibot organlari va jamoat tuzilmalarining mahallalar kesimida birgalikda ishlashini tashkil etadigan organlarning eng quyi bo‘g‘inidagi tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi. Mamlakatimizning ma’muriy-hududiy birliklarida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash maqsadida ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari korxona, tashkilot va tashkilotlar keng jamoatchilik kuch vositalari bilan birlashgan holda hamkorlikda faoliyat olib bormoqdalar. Jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalarini demoklatlashtirish, shu shu jumladan davlat hokimyati va boshqaruv organlar faoliyatini ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, sud-huquq, xususan, ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqorolar huquq erkinliklar va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning ma’sulyatini kuchaytirish borasida, faoliyatni tanqidiy tahlil va tartib intizom asosida olib boorish bo‘yicha qo‘yilayotgan vazifalar ham barcha ijtimoiy-gumanitar va yuridik fanlar qatorida ichki sihlar organlari faoliyat fani tomonidan o‘z ob’ekti va predmetlari doirasida taqdid etilishini talab qiladi. Bugungi kunda ichki ishlar organlari faoliyati fanining asosiy vazifalaridan biri ichki ishlar orgalarining faoliyatida qonun ustuvorligini ta’minlash hamda qonuniylikni mustahkamlash, ichki ishlar organlariga yuklatilgan vazifalarni samarali bajarishga to‘sqinlik qilayotgan omillarni bartaraf etishga qaratilgan ilg‘or nazariy bilimlarni ishlab chiqish hamda amaliyotda yetkazib berishdan iborat.

XULOSA. Ichki ishlar organlarining inson huquqlari sohasidagi faoliaytini 2 ta guruhga bo‘lish mumkin:

1. Shaxs huquqlarini taminlash borasidagi faoliyati

2. shaxs huquqlarini himoya qilish borasidagi huquqlari

Birinchi huquq inson huquqlarini amalga oshirish borasidagi tashkiliy huquqiy chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan

Ikkinchi guruh esa shaxslarni huquqlarini himoya qilish, poymol etilgan huquq va erkinliklarini qayta tiklash borasidagi chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan.

Inson huquqlarini ta’minlash himoya qilish ikki shaklda amalga oshiriladi:

1. To‘liq yuridik faoliyat
2. Yuridik bo‘lmagan faoliyat(tashkiliy)

To‘liq yuridik faoliyat ichki ishlar organlari tomonidan huquqbuzarliklarni bartaraf etish hamda poymol qilingan inson huquqlarini qayta tiklash amaliyotini o‘z ichiga oladi. Yuridik bo‘lmagan faoliyat esa o‘z chiga ichki ishlar organlari huquqini himoya qilishga qaratilgan tashkiliy faoliyatdir u yordamchi xarakterga ega bo‘lib, uning sifati va natijalaridan to‘liq yuridik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ichki ishlar organlarining inson huquqlarini himoya qilish borasidagi faoliyatining asosiy shakllari uslublari va turlari bo‘yicha ilmiy tadqiqot o‘tkazish natijasida quyidagi xulosaga kelinadi:

Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha keng qamrovli faoliyati inson huquqlari va erkinliklarii muxofaza qilishga qaratilgandir

Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni taminlash bo‘yicha keng qamrovli faoliyatni huquqqiy tartibga solish uchun “ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi “tezkor qidiruv faoliyati” to‘g‘risidagi qonunlar loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish kun tartibiga qo‘yilada.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi ichki Ishlar organlari to‘g‘risidagi Qonuni. (2018-yil 1-sentabrdagacha bo‘lgan o‘zgarish va qo‘shimchalar bilan) T.,”Adolat” 2018
2. Ziyodullayev M.Z. Ichki ishlar organlari faoliyati IIV akademik litseylar uchun DARSLIK T.,2023
3. 3. Ichki Ishlar Organlari Faoliyati *O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi akademik litseylari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan* T., 2021
4. Sattarov A. Inson huquqlari va ichi ishlar organlari faoliyati T., 2007.
5. O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar organlari xodimlarining kasbiy tayyorgarligi bo‘yicha O‘quv-amaliy qo‘llanma T.,2016